

Maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark, klaster va Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZlar hamda ularning ishtirokchilari soni
- II. MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZlarning asosiy ko'rsatkichlari
- III. MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. AT parki ishtirokchilari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. MIZ va KSZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining faoliyat turlari bo'yicha ulushi
- VI. MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZlar ishtirokchilari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZlar hamda ularning ishtirokchilari soni¹

2026- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, ishtirokchisi mavjud maxsus iqtisodiy zonalar soni 33 ta (keyingi o'rinlarda – MIZ), kichik sanoat zonalari soni 396 ta (keyingi o'rinlarda – KSZ), texnoparklar soni 27 ta, klasterlar soni 349 ta (keyingi o'rinlarda – klaster) hamda Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari soni 143 ta (keyingi o'rinlarda – YoSTZ) bo'lib, ularning tarkibidagi korxonalar soni MIZda 1 116 ta, KSZda 3 098 ta, texnoparklarda 3 680 ta, klasterlarda 383 ta va YoSTZlarda 1 157 taga yetdi.

MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZ ishtirokchilari soni



Iqtisodiy zona turlari

■ Iqtisodiy zonalar ishtirokchilari soni, birlik

¹ MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZ soni ularning ishtirokchilari bo'lgan hamda loyihasi ishga tushirilgan korxonalar bo'yicha shakllantirilgan.



II. MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZning asosiy ko'rsatkichlari

2026- yil yanvar-mart oylarida

	O'lchov birligi	MIZ	KSZ	Texnopark	Klaster	YoSTZ
Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulot (ish, xizmat)lari hajmi (QQS va aksizsiz)	mlrd so'm	14 000,6	5 204,0	779,6	9 679,8	240,6
Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi	mlrd so'm	2 645,5	180,4	545,9	531,4	1,3
O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi	mlrd so'm	49,1	248,0	54,8	14,4	19,9
Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (QQS va aksizsiz)	mlrd so'm	653,6	306,2	9 779,3	477,2	71,9
Hisobot davri oxirida xodimlar soni	kishi	55 869	41 527	55 335	52 152	5 766
Hisobot davri oxirida ish o'rinlari soni	o'rin	55 775	41 925	58 067	53 070	5 747
Xizmatlar eksporti hajmi	ming AQSH dollari	2 725,0	726,8	192 172,8	-	698,6
Xizmatlar importi hajmi	ming AQSH dollari	45 491,1	11 266,1	94 544,1	95,0	144,6

III. MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZning iqtisodiy ko'rsatkichlari

MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi


Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi MIZ tarkibidagi korxonalarda 14 000,6 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 5 204,0 mlrd so'mni, texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 779,6 mlrd so'mni, klasterlar tarkibidagi korxonalarda 9 679,8 mlrd so'mni va YoSTZ tarkibidagi korxonalarda 240,6 mlrd so'mni tashkil qildi.

Eng yuqori sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi maxsus iqtisodiy zona tarkibidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, 14 000,6 mlrd so'mni tashkil etgan hamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 31,4 % ga oshgan.

Taqqoslash uchun: 2025 yilning yanvar-mart oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi MIZ tarkibidagi korxonalarda 10 652,9 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 3 367,3 mlrd so'mni va texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 363,4 mlrd so'mni va klasterlar tarkibidagi korxonalarda 9 960,7 mlrd so'mni tashkil qilgan.



MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Klasterlar tomonidan amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulot \(ish, xizmat\)lari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)

[KSZ ishtirokchilari tomonidan amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulot \(ish, xizmat\)lari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)

[Maxsus iqtisodiy zonalar tomonidan amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulot \(ish, xizmat\)lari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)


[Texnopark ishtirokchilari tomonidan amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulot \(ish, xizmat\)lari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)

MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi MIZ tarkibidagi korxonalarda 49,1 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 248,0 mlrd so'mni, texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 54,8 mlrd so'mni, klasterlar tarkibidagi korxonalarda 14,4 mlrd so'mni hamda YoSTZ tarkibidagi korxonalarda 19,9 mlrd so'mni tashkil qildi.

O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori hajmi kichik sanoat zonalarini tarkibidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, 248,0 mlrd so'mni tashkil qildi.

MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Klasterlar tomonidan amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)

[KSZ ishtirokchilari tomonidan amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)


[Maxsus iqtisodiy zonalar tomonidan amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)

[Texnopark ishtirokchilari tomonidan amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi \(QQS va aksizsiz\)](#)

MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi

Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi MIZ tarkibidagi korxonalarda 2 645,5 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 180,4 mlrd so'mni, texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 545,9 mlrd so'mni, klasterlar tarkibidagi korxonalarda 531,4 mlrd so'mni va YoSTZlar tarkibidagi korxonalarda 1,3 mlrd so'mni tashkil etgan.

MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Klasterlar bo'yicha moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapital investitsiyalari hajmi](#)

[KSZ ishtirokchilari bo'lgan korxonalarni moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapital investitsiyalari hajmi](#)

[MIZ ishtirokchilari bo'lgan korxonalarni moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapital investitsiyalari hajmi](#)

[Texnopark ishtirokchilari bo'lgan korxonalarni moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapital investitsiyalari hajmi](#)

IV. AT parki ishtirokchilari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2026- yilning yanvar-martida, AT parki ishtirokchilarining xizmatlar eksporti hajmi 191,8 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 38,5 mln AQSH dollariga ko'paygan.

2026- yilning yanvar-martida, AT parki ishtirokchilarining xizmatlar importi hajmi 92,2 mln AQSH dollarini tashkil etgan.

2026- yilning yanvar-martida, AT parki ishtirokchilari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 9 401,7 mlrd so'mni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 2 775,2 mlrd so'mga oshgan.

2026- yilning yanvar-martida, AT parki ishtirokchilari bo'yicha moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 500,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 348,9 mlrd so'mga oshgan.

AT parki ishtirokchilarining asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2025-yil yanvar-mart oylarida	2026-yil yanvar-mart oylarida
Xizmatlar eksporti hajmi	mln AQSH dollari	153,3	191,8
Xizmatlar importi hajmi	mln AQSH dollari	47,4	92,2
Ko'rsatilgan bozor xizmatlari (QQS va aksizsiz) hajmi	mlrd so'm	6 626,5	9 401,7
Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi	mlrd so'm	151,6	500,5
Hisobot davri oxirida ish o'rinlari soni	o'rin	37 274	46 172

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[AT parki ishtirokchilarining xizmatlar eksporti hajmi](#)


[AT parki ishtirokchilarining xizmatlar importi hajmi](#)

[AT parki ishtirokchilarida ishlab chiqarilgan \(ko'rsatilgan\) xizmatlar \(QOS va aksizsiz\) hajmi](#)


[AT parki ishtirokchilari bo'yicha moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi](#)

V. MIZ va KSZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining faoliyat turlari bo'yicha ulushi

MIZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining faoliyat turlari bo'yicha ulushi



KSZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmining faoliyat turlari bo'yicha ulushi





VI. MIZ, KSZ, texnopark, klaster va YoSTZ ishtirokchilari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Maxsus iqtisodiy zona – tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan hudud.

Kichik sanoat zonasi – aniq yer uchastkasini o'z ichiga olgan hudud bo'lib, ba'zi hollarda – muhandislik-texnik kommunikatsiyalar bilan ta'minlangan ishlab chiqarish maydonlari.

Texnopark – o'zaro, davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qiluvchi, tadbirkorlik, investitsiya faoliyatini va ilmiy faoliyatni yuritish maqsadida zamonaviy texnologik va tashkiliy muhitni shakllantiruvchi ilm-fan va ta'limning tijorat va notijorat tashkilotlar, moliya institutlari va tadbirkorlarning integratsiyalashuvi shakli.

Klaster – meva-sabzavot va qishloq xo'jaligi resurslarini yetishtirish va chuqur qayta ishlash, chorvachilik, baliqchilik va boshqa komplekslarni yaratish, raqobatbardosh yuqori texnologiyali va eksportbop to'qimachilik, oziq-ovqat va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish shakli.

Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari – tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, yoshlar bandligini, eng avvalo "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning bandligini ta'minlash va yosh tadbirkorlik subyektlarining investitsiya loyihalarini amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratilgan maxsus hudud.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlari kuzatuv
va statistik biznes registrlar
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
Elektron manzil: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1145)

